



AHOLINI UY-JOY BILAN TA'MINLASHNING KO'P OMILLI O'LCHOV MODELI OMILLARI TA'SIRI TAHLILI

PhD **Xannarov Komiljon**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

ORCID: 0009-0001-0447-7397

xannarov.k@gov.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada aholini uy-joy bilan ta'minlash darajasini baholash uchun ko'p omilli (multifaktorli) o'lchov modeli ishlab chiqilgan va undagi asosiy omillarning ta'siri tahlil qilinadi. Modelda ijtimoiy-iqtisodiy omillar (daromad darajasi, bandlik, oila tarkibi, demografik o'zgarishlar), moliyaviy omillar (ipoteka kreditlari mavjudligi, uy-joy narxlari, subsidiyalar), urbanizatsiya va infratuzilma rivojlanishi kabi ko'rsatkichlar kompleks tarzda hisobga olinadi. Tadqiqot natijalarida omillarning o'zaro ta'siri, ularning ta'sir kuchi va yo'nalishi baholanib, modelning prognoz qilish qobiliyati sinovdan o'tkaziladi. Ish natijalari davlat uy-joy siyosatini takomillashtirish, aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha amaliy takliflar berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: aholini uy-joy bilan ta'minlash, ko'p omilli model, multifaktorli o'lchov, omillar ta'siri tahlili, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, ipoteka krediti, uy-joy narxlari, urbanizatsiya, infratuzilma, davlat siyosati, prognoz modeli.

АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ ФАКТОРОВ МНОГОМЕРНОЙ МОДЕЛИ ИЗМЕРЕНИЯ ОБЕСПЕЧЕННОСТИ НАСЕЛЕНИЯ ЖИЛЬЁМ

PhD **Ханнаров Комилжон**

Кабинет министров Республики Узбекистан

Аннотация. В статье систематизировано исследуются социально-экономические факторы, влияющие на уровень обеспеченности населения жильём. В работе выделены и сгруппированы ключевые факторы: уровень доходов населения, состояние занятости, состав семьи, процессы урбанизации, доступность ипотечного кредитования, цены на жильё, государственная жилищная политика и субсидии, демографические изменения, развитие инфраструктуры. Результаты исследования направлены на выявление взаимосвязей между указанными факторами и степени их влияния на улучшение жилищных условий населения, а также на выработку практических рекомендаций для формирования государственной политики и обеспечения социально-экономической стабильности.

Ключевые слова: обеспеченность населения жильём, многофакторная модель, многомерное измерение, анализ влияния факторов, социально-экономические факторы, ипотечное кредитование, цены на жильё, урбанизация, инфраструктура, государственная политика, прогнозная модель.

ANALYSIS OF THE IMPACT OF FACTORS IN THE MULTI-FACTOR MEASUREMENT MODEL OF POPULATION HOUSING PROVISION

PhD *Khannarov Komiljon*

Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan

Abstract. *This article systematically examines the socio-economic factors influencing the level of housing provision for the population. The study identifies and groups key factors such as income levels, employment status, family composition, urbanization processes, availability of mortgage lending, housing prices, state housing policy and subsidies, demographic changes, and infrastructure development. The research findings aim to determine the interrelationships among these factors and the extent of their impact on improving housing conditions for the population, while providing practical recommendations for shaping state policy and ensuring socio-economic stability.*

Keywords: *population housing provision, multi-factor model, multifactor measurement, factor impact analysis, socio-economic factors, mortgage lending, housing prices, urbanization, infrastructure, state housing policy, predictive model.*

Kirish.

O'zbekistonda aholini uy-joy bilan ta'minlashda qator islohotlar amalga oshirilayotganligini qayd etish lozim. Bunda davlatning fiskal siyosatining tutgan roli alohida ahamiyatga ega bo'ladi. davlat o'zining xarajatlarini oshirish orqali milliy iqtisodiyotdagi yalpi talabni oshirishga olib keladi. Bu esa. uy-joy bozorida narxlarning tebranishiga o'zining ma'lum darajada ta'sir etadi, deb o'ylaymiz. Natijada, aholini uy-joy bilan ta'minlashga qaratilgan dasturlarning ijtimoiy xususiyatini kuchaytirishga bo'lgan zarurat yuzaga chiqadi.

Malakatimizda aholini uy-joy bilan ta'minlashga qaratilgan islohotlar doirasida oila boshiga to'g'ri keluvchi yashash maydonining muvofiqligini barqarorlashtirish kabi jihatlar alohida xususiyat kasb etadi. Bunda oila a'zolarining soni, oiladagi farzandlar va ularning o'z oilari shakllanishi natijasida alohida turar-joylarga bo'lgan ehtiyojning ortishi va kam ta'minlangan aholi qatlamini ijtimoiy dasturlar orqali qo'llab-quvvatlash kabi omillar aholini uy-joy bilan ta'minlash siyosatida e'tiborga olinishi lozim bo'lgan yo'nalishlar hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Zokirov (2018) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda aynan aholining uy-joy bilan ta'minlashda yashash maydonining ijtimoiy mezoni to'g'risida fikrlarni tahlil qilib o'tadi. Uning fikricha, mamlakatimizning ayrim shaharlarida bir kishi to'g'ri keladigan 16 m² yashash maydoni Andijon, Marg'ilon, Zarafshon va Xonobod. Qo'qon va Jizzax kabi shaharlarda kichikligicha qolayotganligini ta'kidlab o'tadi. Bu esa, aholini uy-oy bilan ta'minlashda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan muhim elementlardan biri ekanligini asoslashga harakat qiladi.

Lavikka va boshqalar (2023) birgalikda uy-joy olishga bo'lgan motivasiya va bozor tamoyillarini tahlil qiladi. Ular tomonidan uy-joyga bo'lgan talabning o'zgarishi, moslashuvchanligi kabi omillar insonlar ehtiyojini qondira olish imkonini tahlil qiladi. Shuningdek, bozor tamoyillarining o'zgaruvchanligi fonida uy-joy bilan ta'minlash zarurati tadqiq etiladi.

Sattarov (2023) esa mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda viloyatlararo hamkorlikning muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tadi. Uning xulosasida viloyatlararo hamkorlikni rivojlantirishda uy-joy va infratuzilma qurilishini amalga oshirish nuqtai-nazaridan o'ziga xos yo'nalish ekanligi asoslashga harakat qilinadi.

Bahramova (2018) dissertasion tadqiqotida aholini ijtimoiy himoya qilishning ustuvorliklari borasidagi ilmiy yondashuvlarini asoslashga e'tibor beradi. Uning fikricha,

aholini ijtimoiy himoyalashga ta'sir etuvchi omillar ikki guruh – ijtimoiy himoyalash inson hayoti faoliyatiga bog'liq ekanligi, ijtimoiy himoyalanganlik esa inson turmush darajasini belgilab beruvchi omil ekanligi shaklida ko'rsatib beriladi. Hayot faoliyati omilari qatorida uy-joy bilan ta'minlanganlik omilini ajratib ko'rsatib beradi. Shu bilan birga, turmush farovonligiga erishish uchun namunaviy loyihalar asosida imtiyozli va arzon uy-joylarni qurish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tadi.

Alieva (2020) o'zining ilmiy tadqiqotida ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishning o'ziga xos jihatlarni tahlil etadi. Uning fikricha, mintaqaviy ijtimoiy infratuzilmani rivojlanishini belgilab beruvchi omillar qatorida uy-joy sohasi muammolarini hal qilishni keltirib o'tadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Biz tadqiqotlarimizni amalga oshirishda aholini uy-joy bilan ta'minlash borasida ta'sir qilishi mumkin bo'lgan monetar omillar sifatida – aholining daromadlarini shakllantiruvchi elementlar va nomonetar omillar sifatida – oilaning hajmi, qurilish jarayonlari, farzandlar soni va oiladagi xo'jalik iste'mol mahsulotlaridan foydalanish tendensiyalari kabi jihatlarni qamrab olishga e'tibor qaratdik.

Aholini uy-joy bilan ta'minlashga ta'sir etishi mumkin bo'lgan omilarni tizimlashtirishga va ulardan foydalangan holda ko'p omilli o'lchov modelini tuzishga harakat qildik. Unda 2010-2023 yillar kesimidagi makroiqtisodiy xususiyat kasb etuvchi quyidagi ko'rsatkichlarni tanlab oddik.

1-jadval

Uy-joy fondiga ta'sir etuvchi monetar va nomonetar omillar tasviriy statistikasi

Ko'rsatkich nomi	Modeldagi belgisi	Mean	Std. err.	[95% conf.	interval]
Bir xonali kvartiralar soni	Y	500747.2	35371.81	424331.1	577163.4
Ikki xonali kvartiralar soni	Y	2016068	39243.97	1931287	2100849
To'rt xonali kvartiralar soni	Y	1784256	51965.56	1671991	1896520
Monetar ko'rsatkichlar					
Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	X1	53843.68	12817.78	26152.55	81534.8
Aholi umumiy daromadlari o'sishi, foizda	X2	121.7714	1.836218	117.8045	125.7383
Aholi jon boshiga daromad, ming so'm	X3	8663.614	1523.934	5371.355	11955.87
Mol-mulkdan olingan daromadlar ulushi, foizda	X4	2.328571	.1215416	2.065997	2.591146
Transfertdan olingan daromad, foizda	X5	21.79286	1.117074	19.37957	24.20615
Nomonetar ko'rsatkichlar					
Oila o'rtacha kattaligi, kishi	X6	5.071429	.0220603	5.02377	5.119087
3 bolali oilalar ulushi, foizda	X7	16.46429	.2300519	15.96729	16.96128
Bir kishilik oila	X8	2.7	.1037749	2.475808	2.924192
Uch kishilik oila	X9	10.51429	.2369349	10.00242	11.02615
Besh kishilik oila	X10	61.67857	.5035237	60.59077	62.76637
100 oilaga bir engil avtomobil	X11	41.57143	2.997644	35.09541	48.04745
100 oilaga bir kondisioner	X12	33.85714	2.281934	28.92732	38.78696
100 oilaga bir changyutgich	X13	54.28571	2.68375	48.48783	60.0836

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tanlab olingan ko'rsatkichlar ayrimlari monetar ahamiyatga ega bo'lib ular aholi daromadlarini tarkibiy bo'g'ini sifatida aks etishini qayd etish lozim. Boshqa bir ko'rsatkichlar oila a'zolari soni va ular egalik qiladigan uy xo'jaligi mahsulotlarini keltirish mumkin.


Biz mazkur omillarning ko'p qavatli uylardagi kvartiralar sonining o'zgarish tendensiyasiga ta'sirini aniqlash va shakllantirilgan modelni baholashga e'tibor qaratamiz.

Dastlab biz monetar va nomonetar ko'rsatkichlarning korrelyasion holatini tekshirib chiqamiz. Shuningdek, bog'liq o'zgaruvchilarning stasionarlik testini amalga oshiramiz. Bunda bir xonali kvartiralar sonining o'zgarishi stasionar bo'lganligi sababli, uni o'zgartirmagan holda modelda foydalanamiz. Ikki va uch xonali kvartiralar soni nostasionar bo'lganligi sababli. Ularning farqlarini aniqlash orqali ularning yangi qiymatlarini 5 foizlik ehtimol bilan stasionar holatga keltiramiz va ularni modelda foydalanamiz (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Dickey-Fuller test for unit root				
Interpolated Dickey-Fuller			Number of obs = 14	
	Test Statistic	1%Critical Value	5% Critical Value	10%Critical Value
Z(birxona)	-4.121	-3.750	-3.000	-2.630
MacKinnon approximate p-value for Z(t) = 0.0009				
Z(d_ikkixona)	-2.932	-3.750	-3.000	-2.630
MacKinnon approximate p-value for Z(t) = 0.0417				
Z(d_to'rtxona)	-2.962	-3.750	-3.000	-2.630
MacKinnon approximate p-value for Z(t) = 0.0386				

2010-2023 yillar kesimida kvartiralar sonining o'zgarishiga e'tibor qaratamiz. Ularning o'zaro o'zgarish tendensiyasida tizimlilik mavjudligini tahlil qilishga imkon tug'iladi, deb o'ylaymiz. 2019 yildan keyingi yillarda ikki va to'rt xonali kvartiralarning soni sezilarli o'sishni boshlagan bo'lsada, 2020 yildagi panlemiyada ushbu tendensiyaning kamayganligini kuzatish mumkin. Undan keyingi yillarda esa, sezilarli o'sishni kuzatish mumkin bo'ladi., ayniqsa ikki xonali kvartiralar sonida keskin o'zgarish vujudga kelganligini qayd etish lozim. Shuningdek, bir xonali kvartiralar sonining bir tekis o'zgarib borayotganligini qayd etish lozim (1-rasmga qarang).



1-rasm. Kvartiralar soniing 2010-2023-yillarda o'zgarish tendensiyasi matrisasi

Biz dastlab bir xonali kvartiralarining soni o'zgarishiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan modellarni tekshirib chiqishga e'tibor qaratamiz. Bunda monetar va nomonetar omillarni alohida holda ta'sirini aniqlashga harakat qilamiz. O'z navbatida, bir xonali kvartiralar sonining o'zgarish tendensiyasini monetar va nomonetar omillar ta'siri ostidagi o'zgarishlarni tahlil qilganimizda tuzilgan modellarimiz statistik jihatdan ahamiyatli emasligini ko'rsatib berdi.

Jumladan, tanlangan barcha ko'rsatkichlar birgalikda va alohida monetar, nomonetar omillarning ta'siri statistik ahamiyatga ega bo'lmaganligini qayd etish lozim. P-value mos ravishda 0,8030; 0,6390 va 0,7000 bo'lganligi sababli ushbu modellarimiz statistik ahamiyatga ega emasligini yana bir qayd etish lozim. Shu boisdan, bir xonali kvartiralar sonining o'zgarish tendensiyalarini baholash bo'yicha tadqiqotlarimizni shu yerda to'xtatish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

Ikki xonali kvartiralar soniga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda tanlangan barcha ko'rsatkichlardan foydalangan tarzda modelni tuzib chiqamiz. Tanlangan barcha 13 ta ko'rsatkichlar modelga kiritilganda, ularning o'rtasidagi multikolleniarlik (4-jadvalga qarang) yuqoriligi bois Aholi jon boshiga daromad, ming so'm, Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm, 100 oilaga bir changyutgich, 100 oilaga bir engil avtomobil, 100 oilaga bir kondisioner, uch kishilik oila kabi ko'rsatkichlarni modeldan chiqarib tashlaymiz.

4-jadval

Variable	VIF	1/VIF
Aholi jon boshiga daromad, ming so'm	3947.69	0.000253
Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	3935.41	0.000254
100 oilaga bir changyutgich	679.12	0.001473
100 oilaga bir engil avtomobil	273.37	0.003658
100 oilaga bir kondisioner	140.22	0.007132
Uch kishilik oila	71.35	0.014015
Besh kishilik oila	45.70	0.021883
Aholi umumiy daromadlari o'sishi, foizda	35.76	0.027965
Bir kishilik oila	26.99	0.037045
3 bolali oilalar ulushi, foizda	25.69	0.038923
Transfertdan olingan daromad, foizda	22.83	0.043804
Mol-mulkdan olingan daromadlar ulushi, foizda	18.21	0.054904
Oila o'rtacha kattaligi, kishi	10.30	0.097056
Mean VIF	710.20	

Modelni tuzish davomida chiqarib yuborilgan ko'rsatkichlar inobatga olingan tahlillarimiz natijasida quyidagi 2.8-jadvalda keltirilgan modelni shakllantirishga muvaffaq bo'ldik.

Tuzilgan model 5 foizlik ehtimol bilan statistik ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash lozim. Shuningdek, tuzilgan model bog'liq o'zgaruvchini 82,96 (R-squared) foiz atrofida tushuntirib bera olmoda. Bu esa, tuzilgan modelning ahamiyatini mavjud ekanligini ifodalab beradi, deb o'ylaymiz.

5-jadval


Ikki xonali kvartiralar sonining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha model

Source	SS	df	MS	Number of obs	=	14
				F(6, 7)	=	5.68
Model	2.3254e+11	6	3.8757e+10	Prob > F	=	0.0190
Residual	4.7755e+10	7	6.8221e+09	R-squared	=	0.8296
				Adj R-squared	=	0.6836
Total	2.8030e+11	13	2.1561e+10	Root MSE	=	82596

Ko'rsatkichlar	Coef.	Std. Err.	t	P>t	[95% Conf. Interval]	Interval]
Aholi umumiy daromadlari o'sishi, foizda	-3830.453	4690.847	-0.82	0.441	-14922.54	7261.637
Mol-mulkdan olingan daromadlar ulushi, foizda	10693.16	59363.41	0.18	0.862	-129679	151065.3
Transfertdan olingan daromad, foizda	22222.86	11247.36	1.98	0.089	-4372.925	48818.64
Oila o'rtacha kattaligi, kishi	-249435.3	450180.3	-0.55	0.597	-1313943	815071.9
3 bolali oilalar ulushi, foizda	48225.25	60060.46	0.80	0.448	-93795.18	190245.7
Besh kishilik oila	9379.054	15256.47	0.61	0.558	-26696.75	45454.86
_cons	1865821	1767147	1.06	0.326	-2312817	6044458

Fikrimizcha, tuzilgan modelning statistik ahamiyatli ekanligini inobatga olsak, tanlangan ko'rsatkichlar o'zining ma'lum darajada ta'sir kuchi mavjudligini qayd etish lozim. Jumladan, aholining transfertlardan oladigan pul o'tkazmalari shaklidagi daromadlari ularning ikki xonali kvartiralar olishga bo'lgan moyilligini shakllantirmoqda. Bu esa, transfertlardan olingan daromadlar joriy iste'mol bilan birga, uy-joy sotib olishdagi roli ham mavjudligini ta'kidlash lozim.

5-jadval modelidagi qolgan omillarning esa to'g'ridan-to'g'ri ta'sirini kuzatmaymiz. Bizningcha, ushbu omillarning model tuzilishidagi roli mavjud bo'lsada, ularning sezilarli ta'siri mavjudligini qayd etsakda, birgalikdagi ta'sirini statistik roli ko'zga tashlanmasligini ko'ramiz.



2-rasm. Ikki xonali kvartiralar soni va transfert daromadlari matrisasi

Qayd etish lozim, ikki xonali kvartiralar sonining o'zgarishi aholining transfertlardan olgan daromadlariga muvofiq shaklda rivojlanmoqda. Uy xo'jaliklarining ushbu turdagi daromad shakllari ikki xonali kvartiralarni sotib olishga nisbatan to'g'ri proporsional shaklda ta'sir etayotganligini ham kuzatishimiz mumkin. Bu esa, ushbu ikki omilni e'tiborga olib aholini uy-joy bilan ta'minlashga doir bo'lgan islohotlarni ishlab chiqishni o'zida mujassamlashtiradi, deb o'ylaymiz.

Uch xonali kvartiralar sonining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va baholash bo'yicha tadqiqotlarimizni davom ettiramiz. Bunda oldingi modelimizda multikollinearlik natijasida ajratib olingan ko'rsatkichlar bilan navbatdagi modelimizni tuzishga e'tibor qaratamiz. Biz monetar va nomonetar omillarni tizimlashtirgan holda tuzgan modelimizda oila a'zolarining soni uch va besh kishi bo'lishini ikkita alohida model asosida shakllantirishga harakat qildik.

Uch xonali kvartiralar sonining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni tizimlashtirganimizda aholi umumiy daromadlari o'sishi, mol-mulkdan olingan daromadlar ulushi, transfertdan olingan daromad va 3 bolali oilalar ulushi va oila a'zolarining uch yoki besh kishiidan iborat bo'lishi kabi jihatlar statistik va sezilarli ta'sirga ega ekanligini aniqladik. Ushbu ko'rsatkichlarning omilli ta'sirini baholash uchun ko'p omilli modelni tuzdik.

Dastlab oila a'zolari soni uch kishi bo'lgandagi holatni baholab chiqamiz. 2.9-jadvalda keltirilgan modelni ko'rib chiqamiz. Model statistik ahamiyat ($\text{Prob}>F=0.0018$)ga ega bo'lib, tuzilgan model uch xonali kvartiralar sonini o'zgarishining 87,59 (R-squared) foizini tushuntirib bermoqda.

Model uchun tanlab olingan barcha omil ko'rsatkichlari statistik jihatdan ahamiyatli ta'sirga ega bo'layotganligini qayd etish lozim. Aholi daromadlarining o'sishi 10 foizlik ehtimol bilan ta'sirga ega bo'layotgan bo'lsa, qolgan monetar ko'rsatkichlar yuqori statistik ta'sirga ega ekanligini qayd etish lozim. Shuningdek, aholining mol-mulkdan olayotgan daromadlari juda kuchli ta'sirga ega ekanligini ko'rish mumkin. Boshqacha aytganda, daromadning ushbu turi oilalarning uch xonali kvartiralar sotib olishga bo'lgan moyilligini oshirmoqda.

Xulosa va takliflar.

Bizningcha, yuqorida keltirilgan tahlil va natijalardan quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirish mumkin bo'ladi:

Birinchidan, mol-mulk solig'i va oila a'zolari soni statistik jihatdan sezilarli va kuchli ta'sirga ega bo'lmoqda.

Ikkinchidan, farzandlar soni 3tadan ortiq ko'payib borishi uch xonali kvartiralarga bo'lgan talabni pasaytirishga olib kelmoqda.

Uchinchidan, oila a'zolari soni uch kishidan besh kishiga ortganda oila daromadlari uch xonali kvartiralar sotib olishga bo'lgan ta'sirini yo'qotmoqda.

Tadqiqotlar asosida xulosa qilib aytganda, aholini uy-joy bilan ta'minlashda monetar omillarning ta'siri yuqoriroq bo'lmoqda. Shuningdek, ayrim nomonetar ko'rsatkichlar ham o'zining sezilarli ta'siriga ega bo'layotgan bo'lsada, ularning ta'siri teskari proporsional ahamiyat bilan vujudga kelayotganligini qayd etish lozim. Umuman olganda, oila a'zolarining soni ortishi xonalar soni ko'proq bo'lgan kvartiralar sotib olishga to'g'ri proporsional, farzandlar soni esa teskari proporsional ta'sir etayotganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, mol-mulkdan olingan daromadlar oilalarning qo'shimcha turar-joylar sotib olishga bo'lgan moyilligini oshirishga xizmat qilayotganligini kuzatish mumkin.

Qayd etish lozim, farzandlar soni va oila a'zolarining 3tadan ko'p bo'lishi uch xonali kvartiralar sonining oshishiga teskari proporsional ta'sir etayotganligini ko'rsatmoqda. Boshqacha aytganda, uch xonali kvartiralar sonining ortishiga oila a'zolari soni teskari ta'sir etmoqda.

Uy-joyni tanlash va uning sifatidan qoniqish tendensiyalariga ta'sir etishi mumkin bo'lgan iqtisodiy omillar nuqtai nazaridan quyidagi ilmiy yondashuvlarni umumlashtirishga harakat qildik:

Adabiyotlar / Литература / Reference:

Lavikka, R., & Paiho, S. (2023). Motivations and market solutions for flexible housing in Finland. *Journal of Housing and the Built Environment*, 38(3), 1789-1818.

WHO Housing and health guidelines. (2018) Geneva: World Health Organization; LicenceCC BY-NC-SA 3.0 IGO.

Zokirov S. (2018) Aholini uy-joy bilan ta'minlash masalalari. – Toshkent: Iqtisodiyot.

Алиева Г.А. (2020) Ижтимоий инфратузилмалар ривожланишини бошқаришни такомиллаштириш (Қорақалпоғистон Республикаси мисолида): и.ф.б.ф.д. ... автореферат. –Т.: Қорақалпоқ давлат университети, – 56 б.

Бахрамова Д.Б. (2018) Аҳолини ижтимоий ҳимоялашнинг асосий йўналишларини иқтисодий-статистик таҳлили (Қашқадарё вилояти мисолида): и.ф.б.ф.д. ... автореферат. – Т.: ТДИУ, – 56 б.

Саттаров Р.А. (2023) Вилоятлараро ижтимоий-иқтисодий ҳамкорликни ривожлантириш (Фарғона, Андижон ва Наманган вилоятлари мисолида): и.ф.б.ф.д. ... автореферат. –Т.: ПМТИ, – 53 б.